

## MODALLIK VA UNING MULOQOTDA IFODALANISHI

Siddiqjon Muminov Mirsobirovich

Farg'ona davlat universiteti Filologiya fakulteti professori

Dilraboxon Sirojiddinova Baxtiyor qizi

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Farg'ona filiali Xorijiy tillar kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10036953>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqola tilshunoslikda modallik hodisasiga bag'ishlangan bo'lib, unda turli xil fikrlar uchraydi. Modallik gapni shakllantiruvchi katigoriya yoki gapga xos bo'lgan tarkibiy qism ekanliga haqida qarashlar yoritilgan. Shuningdek o'quvchiga tushunarli bo'lishi uchun misollar asosida izohlab ham o'tilgan. Modallikning tilshunoslikdagi o'rnini ham uning muloqotdagi ma'noni yoritib berishga qay darajada ahamiyatli ekanligi ham izlanishlar davomida o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** modallik, kategoriya, muloqot, voqelik, reallik, obyektiv, subyektiv, tilshunoslik, fikrning aniqligi, til sathlari.

**KIRISH:** Tilshunoslikda modallik deganda, odatda, gap mazmunining obyektiv borliqqa munosabati va so'zlovchining gap mazmuniga bo'lgan munosabati tushuniladi. Modallik kategoriyasiga gap modalligini ta'minlashga xizmat qiladigan xilma-xil vositalar kiritiladi. Bu esa xatto modallikning aloxida til kategoriyasi sifatida mavjudligini ham shubxa ostiga qo'ydi. Turkiy tillar materiallari asosida, asosan, quyidagi modallik vositalari ko'rsatiladi: mayl, zamon va shaxs son qo'shimchalarining aloxida qurilmalari, yuklamalar, so'z tartibi, intonatsiya, yuklama vazifasidagi so'roq olmoshlari, mundalmalar, kirish so'z va gaplar, ko'rinib turibdiki, bu kategoriya ostida xilma-xil vositalar: morfologik (mayl, zamon, shaxs affiksleri), leksik (so'zlarning turli guruxlari), sintaktik (aloxida gap qurilmalari so'z tartibi, takror va fonetik vositalar ya'ni intonatsiyalar) kiritiladi. Bir kategoriya ostiga bunday xilma-xil vositalarning birlashtirilishi tilshunoslar o'rtasida, tabiiy ravishda, ayrim e'tirozlarning tug'ilishiga sabab bo'ldi. Shuning uchun ham bu vositalarni birlashtiradigan bir umumiy belgi topishga harakat qilindi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI.

Ilmiy adabiyotlarda modallik haqida turli fikrlar mavjud. Rasulovning izohicha ma'lum konstruksiyaning gap bo'lib kelishi uchun shart bo'lgan predikativlik gapda ifoda qilingan fikrning real borliqqa bo'lgan munosabatini bildirib, turli konstruksiyadagi gaplarda turlicha ifoda qilinadi. Rasulov yana, yuqoridagi fikrni davom ettirib, modallikni sintaktik mayl kategoriyasiga tenglashtiradi. Shapiro modallik haqida har qanday gapni harakterlovchi zaruriy belgi predikativlik emas, modallikdir deb hisoblashga hamma asos bor, modallik predikativlikka nisbatan keng tushuncha deydi. G'.Zikrillayev bu modallik doirasida o'zaro zid bo'lgan real va noreal modalliklarni ajatib o'rganishni tavsiya etadi. Reallik modalligi gapda amalda mavjud bo'lgan faktlar haqida fikr bayon qilinganligini ifodalaydi. Boshqacha aytganda reallik gap mazmunining voqelikka mos kelishini ko'rsatishi haqida fikrlarni bergan. Shuningdek ushbu maqolani yozishda mavzuga aloqador bo'lgan ilmiy maqolalardan ham foydalanildi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Modallik ma'nosi til sistemasining turli sathlarida kuzatiladi. Uni ifoda etuvchi vositalar ham rang-barangdir. Bu haqda keyinroq so'z yuritsakda hozir modallik haqida yuritilgan fikrlar bilan tanishishda davom etamiz.

A.Ahmedov modallikni juda keng va murakkab tushuncha ekanligini, uni uch planda o'rganish:

- a) gap mundarijasini voqelikka munosabati planida;
- b) so'zlovchining gap mundarijasiga munosabati planida;
- c) subyekt-belgining egasi bilan belgi orasidagi munosabat planida; kerakligini aytib o'tadi

Bu vositalarning hammasi o'z funksiyasini gap ichida (gap satxida) ko'rsatadi. Ana shu belgi, sintaktik belgisi yuqoridagi vositalarni birlashtirishga ma'lum darajada asos bo'ldi. Shunga ko'ra modallik vositalarini ham:

- 1) konstruktiv sintaktik;
- 2) morfologik-sintaktik;
- 3) intonatsionsintaktik guruxlarga ajratish mumkin

Gapning asosiy belgilaridan biri predikativlikdir. Modallik – gap mazmunining borliqqa munosabatini ifodalashdir. Gap orqali so'zlovchi biror voqea, hodisa yoki xususiyatning mavjudligi yoki biror zamonda ro'y berishi, realligi yoki norealligi, xohishi yoki noroziligi kabi munosabatlarni ham ifodalaydi. Gap ma'lum fikrni anglatishi bilan birga, bu fikrga so'zlovchining munosabatini ham aks ettiradi. So'zlovchining o'z fikriga munosabatini ifodalovchi ma'noga modal ma'no deyiladi. Bunda anglatilayotgan fikrning aniqligi, chinligi, shartlilik kabilar obyektiv voqelikka qiyosan baholanadi. Shularga ko'ra, modallik so'zlovchining voqelikka subyektiv – obyektiv munosabatini ifodalaydi. Modal ma'nolar morfologik, sintaktik va leksik usullar bilan ifodalanadi. Bu usullar o'zaro zich bog'langan. Gapda nisbiy tugal fikr mavjud bo'ladi, shuning uchun ham unda modallik nisbatan tugal namoyon bo'ladi. Gapda modallik grammatik – semantik kategoriya sifatida ko'rinadi. Chunki gap ichida grammatik aloqalar amal qiladi. Ayni vaqtda pragmatik munosabatlar ham grammatik munosabatlar bilan parallel ravishda yuzaga chiqadi. Bunday munosabatlarning yuzaga kelishi o'z – o'zidan modallikning ifodalanishiga olib keladi. Modallik tushunchasi ostida so'zlovchining reallikka obyektiv va subyektiv munosabati namoyon bo'ladi. Obyektiv modallik har qanday gap uchun zaruriy. Subyektiv modallik obyektiv modallik ustiga ko'riladi. Shuningdek, so'zlovchining o'z fikriga munosabati ham modallik bo'lib, bu ko'pincha, grammatik vositalar bilan ifodalanadi. Modallik tushunchasi ostida munosabat mavjudligi e'tirof etiladi, biroq munosabat qaratilgan obyekt hilma - xilligi modallikni obyektiv va subyektiv turlarga bo'linishiga sabab bo'ladi. Munosabat qaratilgan obyektlar quyidagicha bo'linadi:

Gapdan ifodalangan mazmunning borliqqa munosabati.

Subyektning o'z harakatiga munosabati.

Gapdan ifodalangan obyektiv mazmunga so'zlovchining munosabati.

So'zlovchining o'z fikriga turli munosabatlari.

Birinchi va ikkinchi raqam bilan berilgan obyektiv modallikka kiritilsa, uchinchi va to'rtinchisi subyektiv modallikka kiritiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, kimning va nimaning munosabati ifodalanishida ham hilma –xillik mavjud: mazmunning borliqqa munosabati, subyektning munosabati, so'zlovchining munosabati kabi. Bu talqin (fikr) ni biz inkor etamiz. Chunki bu fikr

biz

munozara

yuritayotgan modallik kategoriyasiga to'la mos keladi. Modallik esa predikativlikdan farq qilib, undan kengroq tushunchadir. Obyektiv modallik – mazmunning borliqqa so'zlovchi nuqtai nazaridan munosabatidir. Bu tip modallik predikativlik bilan uzviy bog'langan bo'lib, uni ifodalovchi vositalar ikki sostavli gapning kesimi yoki bir sostavli gapning bosh bo'lagi tarkibiga kiradi. Fe'l mayllari, intonatsiya, so'z tartibi, modal yuklamalar, leksik – semantik vositalar obyektiv modallikni ifodalaydi.

Obyektiv modallikni ifodalovchi vositalar mazmunan bir xil emasligi sababli Modallikni gapning konstruktiv belgisi deb e'tirof etish unga reallik ma'nosini ham kiritishni taqozo etadi. Kirish so'z mustaqil so'zning biror grammatik formasidan kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Aynan shu ko'rinishdagi mustaqil so'z esa morfemalarga ajraladi. Kirish so'zlarini ayrimlari o'zaro sinonimiya munosabatida ham bo'lishi mumkin:

Chamasi – chog'i;

Shubhasiz – so'zsiz – shaksiz;

O'z – o'zidan – tabiiy;

Haqiqatda – haqiqatan – darhaqiqat;

Ehtimol – balki – shekilli kabi.

Biror turkum so'z asosida kirish so'z shakllanib kelgan bo'lsa, endi ayni bir so'zning ikki ma'nosi va ikki sintaktik vazifasi haqida gapirish to'g'ri bo'lmaydi; bunday hollarda omonimiya hosil bo'lganini etirof etish lozim. Kirish so'zlar mustaqil ma'no birdirmay; predmet, belgi, xarakat anglatmaydi. Shuningdek, gap bo'lagi vazifasida kela olmaydi. Ba'zi kirish so'zlar aslida mustaqil so'zlardan kelib chiqqan. Shuningdek, hozirgi o'zbek adabiy tilida so'zlarning yuzaga kelish uchun asos bo'lgan so'zlar ham saqlangan bo'lishi mumkin. Kirish so'zlar yana bir hususiyati shundaki; ular antonim, sinonim, omonim bo'lib kelaoladi. Antonim va sinonim, kirish so'zlarning bir qismi ma'no qirrasida, boshqalari qo'llanishiga ko'ra farqlanadi. Shunga ko'ra, modal so'zlar dastlab quyidagicha guruhlanadi:

1. Fikrning aniqligini ifodalash uchun xizmat qiluvchi modal so'zlar.

2. Fikrning noaniqligini ifodalash uchun xizmat qiluvchi modal so'zlar.

Bu ikki tip modal so'zlar fikrning ishonchli yoki taxmin ekanligini ajratib turadi. Ishonch ma'nosini kuchaytiruvchi modal so'zlar (albatta, shaksiz, shubhasiz, chindan, haqiqatdan ham kabi) bilan ifodalanib, so'zlovchining gap mazmuni realligiga ishonchi komil ekanini, undan to'la xabardorligini ko'rsatadi:

Kelin, darhaqiqat, yosh, lekin huddi qiziqchilikka semirganday yum – yumaloq. (A.Qahhor).

Bilmayman, chamamda sim qoqdi dedi. (A.Qahhor).

Marosimga mahalladan ko'p odam qatnashmadi, aftidan domla ko'p odamning qalbida bir oy oldin o'lgan, ko'plar o'sha to'yni domlaning janozasi hisoblashgan edi. (A.Qahhor).

Bu gap yoqdi shekilli, rais iljaydi.

Subyektiv modallikni yana bir vosita – ohang (intonatsiya) orqali ifodalash mumkin. Bu narsa dialoglarda aniq ravshan namoyon bo'ladi. Chunki kishilarning hayotiy ehtiyoji ularni boshqa kishilar bilan turli xil munosabatda bo'lishga undaydi.

## **XULOSA**

Tadqiqot davomida ko'rib chiqilgan mavzular ya'ni modallikni o'rganishdagi xozirgi kunga qadar davom etayotgan izlanishlardan va muammoli vaziyatlarning muhokamalaridan kelib

chiqqan holda aytadigan bo'lsak, bu mavzu yechimi topilmagan masalalar, yo'nalishlar va qiyosiy tahlilga muhtoj yechimlar ko'pligi ko'zga tashlandi. Modallik munosabatni ifodalash uchun qo'llanilsa, ularning muqobillari ham huddi shunday vazifani ifodalashi isbotlangan. Maqolani yozish jarayonida modallikka xos bo'lgan jihatlar yorilganligi etiborga molikdir.

### References:

1. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – T.: Sharq, 2010.
2. Ahmedov A. O'zbek tilida gapning kommunikativ turlari. T.,1979. – 143 b.
3. Grammar in Use. Cambridge University. 2002. – 124 p.
4. Hoshimov U, Buranov J, “ Ingliz tili grammatikasining normativ kursi “ T.: „O'qituvchi“- 1987
5. G'apparov M, Qosimova R, “ Ingliz tili grammatikasi “ T.:2008
6. Sirojiddinova, D. B. (2022). BRIEF INFORMATION ABOUT THE HISTORY OF LINGUOCULTURALOLOGY. *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(4), 131-134.
7. Sirojiddinova, D. B. Q., & Murodova, S. A. Q. (2022). Ingliz tilida modal fe'llarining o'ziga xos xususiyati. *Science and Education*, 3(1), 419-423.
8. Sirojiddinova, D. (2022). MULOQOT–SHAXSLARARO AXBOROT ALMASHINUV JARAYONI. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(5), 335-337.
9. Sirojiddinova, D. B (2023). MULOQOT VA MADANIYAT, Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi-4\3-2023
10. Maxkamova, D. (2023). PLANNING THE LESSON PROCESS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES. *Solution of social problems in management and economy*, 2(11), 55-59.
11. Baxtiyorovna, D. (2023, October). EMPOWERING INTELLECTUAL GROWTH: AI INTEGRATION IN ENGLISH LESSONS FOR STUDENTS'DEVELOPMENT. In *Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions"*.
12. Baxtiyorovna, D. (2023, October). EMPOWERING STUDENTS'INTELLECTUAL GROWTH: LEVERAGING SMART EDUCATION TECHNOLOGIES IN ENGLISH LANGUAGE EDUCATION. In *Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions"*.
13. Baxtiyorovna, D. (2023, October). UNLEASHING INTELLECTUAL POTENTIAL: TRANSFORMING ENGLISH LESSONS THROUGH SMART EDUCATION TECHNOLOGIES. In *Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions"*.